Hujjat kodi: MMvaXTB-S-1	«NAVOIYAZOT» AKSIYADORLIK JAMIYATI	1 -nusxa

KELISHILDI:

"Navoiyazot" AJ kasaba uyushma qo'mitasi raisi

F.X. Fayziyeva

2026-yil "14" 05

TASDIQLAYMAN:

"Navoiyazot" AJ boshqaruvi raisi

F.X. Samadov

2026-yil "14" 05

MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA SANOAT XAVFSIZLIGI SIYOSATI

Atama va`` ta'riflar

Sanoat xavfsizligi — xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sodir bo'ladigan avariyalar va hodisalar hamda ularning oqibatlaridan shaxs va jamiyatning hayotiy muhim manfaatlari himoyalanganlik holati.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi avariya — xavfli ishlab chiqarish obyektlarida qo'llaniladigan inshootlar va (yoki) texnik qurilmalarning vayron bo'lishi, nazoratsiz portlash va (yoki) xavfli moddalarning atmosferaga chiqib ketishi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi noxush hodisa — xavfli ishlab chiqarish obyektlarida qo'llaniladigan texnik qurilmalarning ishdan chiqishi yoki shikastlanishi, texnologik jarayon rejimidan og'ish, shuningdek sanoat xavfsizligi sohasidagi qonunchilik hujjatlari hamda me'yoriy-texnik hujjatlarda belgilangan talablarning buzilishi.

Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi — mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarishga qaratilgan qoidalar, tartib-taomillar va resurslarni o'z ichiga olgan tashkiliy tuzilma.

Shaxsiy himoya vositalari (ShHV) — xodimga zararli va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omillarining ta'sirini oldini olish yoki kamaytirish, shuningdek ifloslanishlardan himoya qilish uchun qo'llaniladigan texnik va boshqa vositalar.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa — xodim mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda, ish beruvchi hududida ham, undan tashqarida ham, shu jumladan ish beruvchi tomonidan taqdim etilgan transportda ish joyiga borish yoki ishdan qaytish vaqtida sodir bo'lib, natijada xodim mehnat shikastlanishi yoki sog'lig'ining boshqa shikastlanishini olgan hamda xodimni boshqa ishga o'tkazish zaruratiga, uning kasbiy mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki doimiy yo'qotishiga yoki o'limiga olib kelgan hodisa.

Mehnat sharoiti va jihozlar xavfsizligini (travmatik xavflilik) baholash attestatsiyasi — bu ish joylarida mehnat sharoiti, mehnat jarayonining og'irligi va zo'riqishi hamda jihozlarning travmatik xavfliligini baholash, zararli va xavfli ishlab chiqarish omillarini aniqlash hamda mehnat sharoiti, mehnat jarayonining og'irligi va zo'riqishini qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiqlashtirish maqsadida olib boriladigan tadbirlar majmuasi.

Xavfsizlik madaniyati — ish joyida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan qiymatlar, e'tiqodlar va harakatlar tizimi.

Risklarni proaktiv boshqarish — ehtimoliy tahdidlar amalga oshmasdan oldin ularni aniqlash va tahlil qilishga asoslangan yondashuv.

«Nol travmatizm» konsepsiyasi — barcha baxtsiz hodisalar va insidentlar oldini olinshi mumkinligiga asoslangan tamoyil.

ISO 45001 — mehnatni muhofaza qilish va sog'liqni saqlash boshqaruv tizimlari uchun talablarni belgilaydigan xalqaro standart.

Sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini ishlab chiqarish nazorati (matn davomida — ishlab chiqarish nazorati) — xavfli ishlab chiqarish obyektining (XICHO) xavfsiz faoliyatini

ta'minlash, undagi insident va avariyalarni oldini olish, shuningdek mumkin bo'lgan avariya va insidentlarni mahalliylashtirish va ularning oqibatlarini bartaraf etishga tayyorlikni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-texnikaviy tadbirlar majmuasi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlari (XICHO) — bu xavfli moddalar (portlovchi va yonuvchi, zaharli, portlatkich) va ularning chiqindilari ishlatiladi, ishlanadi, qayta ishlanadi, saqlanadi, tashiladi yoki yo'q qilinadigan korxonalar, sexlar, uchastkalar yoki maydonlar bo'lib, ular sog'liq va atrof-muhit uchun tahdid solishi mumkin. Shuningdek, XICHO ga 0,07 MPa dan yuqori bosimga ega jihozlar bilan ishlaydigan ishlab chiqarishlar, statsionar ko'taruv mexanizmlari, eskalatorlar, kanat yo'llar, funikulerlar, shuningdek metall quyuv jarayonlari olib boriladigan yoki tog'-qazish ishlari olib boriladigan joylar kiradi.

Xavfli ishlab chiqarish obyekti (XICHO) — bu korxonalar yoki ularning sexlari, uchastkalari, maydonlari hamda O'zbekiston Respublikasining «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida»gi Qonunining 4-moddasida belgilangan boshqa ishlab chiqarish obyektlari.

Mundarija

Atama va ta'riflar....2

Mundarija....4

1. Kirish....6

1.1. Siyosatning maqsadi....7

1.2. Qo'llanish sohasi....7

1.3. Majburiyatlar va tamoyillar....7

1.4. Yondashuv....8

1.5. O'zaro bog'liq hujjatlar....9

2. Siyosat va nazorat me'yorlari....9

2.1. Milliy talablar....10

2.2. Ichki qoidalar....12

2.3. Xalqaro standartlar va yondashuvlar....13

3. Tashkillashtirish va javobgarlik....14

3.1.Vazifalarni taqsimlashning umumiy tamoyillari....14

3.2. Xodimlar bilan ta'minlash va resurslar....15

4. Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi bo'yicha chora-tadbirlar rejasi....16

5. Nazorat, monitoring va audit....17

5.1. Monitoringga qo'yiladigan talablar....17

5.2. Hisobot berish va hujjatlashtirish....17

5.3 Ish o'rinlarini attestatsiya bilan integratsiya qilish....17

6. O'qitish va kompetensiyalarni rivojlantirish....18

7. Hisobot....19

8. Baxtsiz hodisalar va insidentlarni tekshirish....19

8.1. Baxtsiz hodisalarni tekshirish 19

8.2. Ichki tekshiruvlar 20

8.3. Komissiyalar tuzish to'g'risidagi buyruqlar 22

8.4. Birlamchi sabablarni tahlil qilish va olingan saboqlar 22

1. Kirish

Ushbu siyosat «Navoiyazot» AJ ning mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi (MMQ va SX) sohasidagi strategik maqsadlari va tamoyillarini belgilaydi, boshqaruv tizimlariga qo'yiladigan talablarni, o'qitish, nazorat hamda baxtsiz hodisalar, avariyalar va insidentlarni tekshirish tartibini mustahkamlaydi, shuningdek xodimlar, pudratchilar va davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik qilishning yagona yondashuvlarini o'rnatadi.

Hujjat quyidagilarga muvofiq ishlab chiqilgan:

- O'zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi 410-sonli Qonuniga;
- O'zbekiston Respublikasining «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi to'g'risida»gi 57-sonli qonuniga;
- GOST 12.0.230-2007 «Mehnatni xavfsizligi standartlari tizimi. Mehnatni muhofaza qilish boshqaruv tizimlari. Umumiy talablar»;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-maydagi 291-sonli qaroriga;
- ISO 45001:2018 «Mehnatni xavfsizligi va sog'liqni muhofaza qilish boshqaruv tizimlari»;
- 2020 yil 31 dekabrdagi 4939-sonli Qarori bilan Vazirlar Mahkamasi tomonidan malaka baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari, shuningdek, «Navoiyazot» AJ boshqaruv raisi tomonidan 2024-yil 1 aprelda tasdiqlangan Reglament;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-sonli "Mehnatni muhofaza qilish sohasiga oid ayrim nizomlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 12-noyabrda qabul qilingan «Korxonalarda, tashkilotlarda va muassasalarda mehnatni muhofaza qilish fondini tashkil etish va uning vositalaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash» to'g'risidagi 245-sonli qaroriga;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi mehnat va bandlik munosabatlari vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1066-sonli qaroriga;
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2012-yil 10-iyuldagi «Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash» to'g'risidagi 200-sonli buyrug'iga;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va xodimlarning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq boshqa sog'liqni buzilishi holatlarini tekshirish va hisobga olish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash» to'g'risidagi 286-sonli qaroriga;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-oktyabrdagi «Sanoat xavfsizligini ekspertizadan o'tkazish va ekspertiza xulosasini berish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash» to'g'risidagi 784-sonli qaroriga;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 10-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonunni amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar» to'g'risidagi 271-sonli qaroriga;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 4-oktyabrdagi «Davlat yong'in nazorati to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash va mehnatni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi hamda texnika xavfsizligi masalalarini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar» 272-sonli qaroriga;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2025-yil 21-iyulda qabul qilingan «Mehnatni muhofaza qilish boshqaruv tizimini joriy etish to‘g‘risida»gi Nizomni tasdiqlash» bo‘yicha 454-sonli qaroriga.

1.1. Siyosatning maqsadi

Ushbu siyosatning maqsadi «Navoiyazot» AJ ning mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasida samaradorlik va boshqaruv yuzasidan yo‘nalishlari va niyatlarini belgilash, shuningdek, ushbu sohadagi maqsad va vazifalarni o‘rnatish uchun asos yaratishdan iborat. Hujjat Kompaniyaning faoliyati va mehnatni muhofaza qilish hamda sanoat xavfsizligiga oid ehtimoliy tahdidlar bilan bog‘liq barcha qonunchilik va boshqa talablarga rioya qilishga sodiqligini ta’kidlaydi hamda mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasida aniq maqsad va vazifalarni belgilash va tahlil qilish uchun poydevor xizmat qiladi.

1.2. Qo‘llanish sohasi

Siyosat barcha xodimlarga, pudratchilarga, subpudratchilarga, ta’minlovchilarga hamda Kompaniya nomidan harakat qiladigan har qanday uchinchi shaxslarga tatbiq etiladi.

1.3. Majburiyatlar va tamoyillar

«Navoiyazot» AJ da biz ishlab chiqarish va iqtisodiy natijalarga erishishda xodimlarimizning hayoti va sog‘lig‘ini saqlashni ustuvor ahamiyatga ega deb bilamiz. Mehnatni muhofaza qilish, sanoat va yong‘in xavfsizligi sohasidagi asosiy maqsadimiz – ishlab chiqarish faoliyatining barcha bosqichlarida xavfsiz va qulay ish sharoitlarini ta’minlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun biz quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratamiz:

- Mehnatni muhofaza qilish, sanoat va yong‘in xavfsizligi sohasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va boshqa me’yoriy talablarga, shu jumladan pudrat tashkilotlarga qo‘yiladigan talablarga rioya qilish.

- Jarohatlar va avariyalarni oldini olish uchun chora-tadbirlarini amalga oshirish, ularning oqibatlarini minimallashtirish hamda ehtimoliy xatar va tahdidlarni kamaytirish.

- Ish joylarida shaxsiy himoya vositalari va maxsus kiyimlardan foydalanishni ta’minlash.

- Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasida ishlab chiqarish madaniyatini shakllantirish hamda xodimlarimizning bilim va ko‘nikmalarini oshirish.

- Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi talablari bo‘yicha bilimlarni tizimli ravishda tekshirish.

- Shaxsiy xavfsizlik va atrofdagilar xavfsizligi talablariga rioya qilish.

- Xodimlar va ularning vakillari bilan mehnat sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha maslahatlar o‘tkazish va ularni xavfsizlikni ta’minlash jarayonlariga faol jalb etish.

- Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi me'yorlariga rioya qilishda shaxsiy hamda jamoaviy mas'uliyatini rivojlantirish.

- Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi ko'rsatkichlarni ochiqlashtirish va barcha manfaatdor tomonlar bilan konstruktiv muloqotni ta'minlash.

- Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi boshqaruv tizimimiz samaradorligini baholash va uni yuksaltirish.

Biz ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi darajasini oshirishga, uskunalarning ishonchli va xavfsiz ishlashini ta'minlashga intilamiz. Baxtsiz hodisalarni tekshirishdan ularni tahlil qilish va risklarni boshqarishga o'tish orqali, biz o'z faoliyatimiz xususiyatlariga moslashtirilgan xalqaro standartlar asosida mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi boshqaruv tizimini takomillashtirmoqdamiz.
Ushbu yo'nalishlar mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi dasturimizning asosini tashkil qiladi va qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun yo'l xaritasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirish har birimizning faol ishtirokimiz va sadoqatimiz bilan amalga oshiriladi, bu «Navoiyazot» AJ samarali faoliyatining kafolati hisoblanadi.

1.4. Yondashuv

Qayd etilgan majburiyatlarni bajarish uchun biz bir necha asosiy elementlarni o'z ichiga olgan kompleks yondoshuvni joriy qilamiz.
Biz mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi boshqaruv tizimini xalqaro ISO 45001 standartlari hamda milliy qonunchilikka muvofiq joriy qilamiz. Bu ishlab chiqarishda mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini tartibga soluvchi ichki me'yoriy hujjatlarning mavjudligini nazarda tutadi. «Navoiyazot» AJ mehnatni muhofaza qilish boshqaruv tizimini milliy qonunchilik va O'zbekiston Respublikasi Hukumat qarorlarini inobatga olgan holda tashkil qiladi. Xususan, biz «Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish» to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasi qarori me'yorlariga amal qilamiz, unda ish joylarini mehnat sharoiti va jihozlardan keladigan jarohat xavflari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish majburiyligi belgilab qo'yilgan. Biz shuningdek mutaxassislarga malaka sertifikatlarini berish, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan tashkilotlar haqidagi ma'lumotlarni tizimlashtirish hamda o'qitish va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqishni ta'minlaymiz. Ushbu talablarga muvofiq, biz mehnat sharoitlarini yaxshilash, jarohatlar va kasbiy kasalliklarni oldini olish bo'yicha maqsadli dasturlarni shakllantiramiz, bu jarayonda xodimlarni tayyorlash va sertifikatlashdan o'tkazishga alohida e'tibor qaratamiz.
Doimiy yo'l-yo'riq va evakuatsiya bo'yicha mashg'ulotlar, shuningdek xavfsizlik madaniyatiga oid dasturlar ishimizda muhim elementlarni tashkil qiladi. Biz barcha xodimlar uchun ularning ishi bilan bog'liq maxsus risklarni qamrab oladigan majburiy ko'rsatmalar o'tkazamiz. Evakuatsiya bo'yicha doimiy mashg'ulotlar xodimlarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlashni ta'minlaydi. Noxush voqealar sodir bo'lsa, biz ularni tekshirish qilish uchun maxsus komissiyalar tashkil qilamiz, ilk sabablarni tahlil qilamiz va ularning takrorlanishini oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqamiz.
Mehnatni muhofaza qilish me'yorlariga rioya qilishni monitoring qilish ichki nazorat va mustaqil auditlar orqali amalga oshiriladi. Biz profilaktik ishlar va shaxsiy himoya vositalari (ShHV)dan foydalanishni o'z ichiga olgan mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi chora-tadbirlari rejasini shakllantiramiz.
Xodimlarni mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi bo'yicha, jumladan xalqaro standartlar bo'yicha kurslarda o'qitish tashkillashtirilgan. Biz qonunchilikdagi o'zgarishlarga moslashish va

xavfsizlik amaliyotlarini takomillashtirish maqsadida tartibga soluvchi organlar va manfaatdor tomonlar bilan faol hamkorlik qilamiz.
Shu tariqa, tizimlar, tartiblar, jarayonlar va amaliyotlarni o'z ichiga olgan kompleks yondoshuv mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini samarali boshqarishni ta'minlaydi va xodimlarimizning hayoti hamda sog'lig'ini muhofaza qilishga xizmat qiladi.

1.5. O'zaro bog'liq hujjatlar

Siyosat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, mehnatni muhofaza qilish hamda sanoat xavfsizligi sohasidagi qonunchiligiga muvofiq ishlab chiqilgan, shuningdek, xalqaro standartlar va tavsiyalarni ham hisobga oladi, ular quyidagilar bilan cheklanmaydi:

- Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik sohasida Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) konvensiyalari va tavsiyalari;
- Mehnatni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi boshqaruv tizimlari bo'yicha XMT qo'llanma tamoyillari (ILO-OSH 2001);
- «Mehnatni muhofaza qilish va sog'liqni muhofaza qilish boshqaruv tizimlari» ISO 45001 Xalqaro standarti;
- «Risklarni boshqarish» ISO 31000 Xalqaro standarti;
- Kimyo va neft-kimyo sanoatida sanoat xavfsizligi sohasidagi boshqaruv hujjatlari va eng yaxshi amaliyotlar

Siyosat «Navoiyazot» AJning «nol travmatizm» tamoyiliga sodiqligini aks ettiradi va xodimlar hamda pudratchilar uchun xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, noxush hodisalarni oldini olish hamda risklarni tizimli boshqarishga qaratilgan.
«Navoiyazot» AJ da mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi Siyosatning amalga oshirilishi «Kirish» bo'limida keltirilgan qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablar va me'yorlarga asoslanadi.

2. Siyosat va nazorat me'yorlari

«Navoiyazot» AJ sanoat xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish va xodimlar sog'lig'ini himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Faoliyatimizda biz quyidagi tamoyillarga amal qilamiz:

- O'zbekiston Respublikasining «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi to'g'risida»gi Qonuniga.
- «Mehnatni xavfsizligi va sog'liqni muhofaza qilish boshqaruv tizimlari» ISO 45001 xalqaro standarti
- Biz sanoat xavfsizligini boshqarish bo'yicha kompleks tizimni joriy qildik, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:
- Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida risklarni identifikatsiya qilish, baholash va minimallashtirish.

- Avariya va noxush hodisalarning oldini olishni, ularning birlamchi sabablarini tahlil qilish hamda xodimlarni o‘qitish asosida ta’minlash.

- Yuqori xavfli ishlar uchun ruxsatnomalar tizimi, shu jumladan yopiq (cheklangan) makonlarda bajariladigan ishlar, gaz xavfi mavjud ishlar va yong‘inli (olovli) ishlar.

- Xodimlar tomonidan shaxsiy himoya vositalaridan (ShHV) majburiy foydalanish hamda ularning malakasini muntazam ravishda oshirib borish.

- Xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan yo‘l-yo‘riqlar, treninglar va o‘quv mashqlarini o‘tkazish.

- Xodimlarni mehnat sharoitlarini yaxshilash jarayoniga jalb etish, shu jumladan intizomiy jazodan qo‘rqmasdan mavjud xavf-xatarlar to‘g‘risida xabar berish imkoniyatini ta’minlash.

Biz har bir xodim o‘zining va hamkasblarining xavfsizligi uchun shaxsiy javobgarlikni anglab yetishiga intilgan holda, xavfsiz xulq-atvor har bir ishchi uchun tabiiy va ongli tanlovga aylanadigan xavfsizlik madaniyatini rivojlantiramiz.

2.1. Milliy talablar

«Navoiyazot» AJda biz O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi milliy talablarga rioya etishimiz shart. Ushbu sohalarni tartibga soluvchi asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi: xodimlar va ish beruvchilarning huquq va majburiyatlarini, shuningdek mehnat sharoitlarining asosiy talablarini, jumladan ish joyida xavfsizlik va sog‘liqni muhofaza qilishni belgilaydi.

- O‘zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonuni: mehnatni muhofaza qilishning asosiy tamoyillarini, xodimlarning xavfsiz mehnat sharoitlariga bo‘lgan huquqlari va ish beruvchilarning ushbu sharoitlarni ta’minlash bo‘yicha majburiyatlarini belgilaydi.

- O‘zbekiston Respublikasining «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi to‘g‘risida»gi qonuni: xavfli ishlab chiqarish obyektlarida xavfsizlik masalalarini tartibga soladi, jumladan sanoat xavfsizligi me’yorlari va talablariga rioya qilishni loyihalash, ishlatish va nazorat qilish bo‘yicha talablarni belgilaydi.

- Davlatlararo standart GOST 12.0.230-2007: mehnat xavfsizligi bo‘yicha umumiy talablarni belgilaydi, jumladan ish joyini tashkil etish, xodimlarni o‘qitish va risklarni baholashni o‘z ichiga oladi.

- Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida ishlab chiqarish nazoratini tashkil etish va amalga oshirish qoidalari: ishlab chiqarish nazoratini olib borish tartibini belgilaydi, jumladan sanoat xavfsizligi holatini muntazam tekshirish va audit qilishni o‘z ichiga oladi.

- O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonuni: fuqarolarning sog‘lig‘ini muhofaza qilishga bo‘lgan huquqlarini belgilaydi va ushbu huquqlarni ta’minlashda davlatning mas’uliyatini belgilaydi.

- O‘zbekiston Respublikasining «Aholi sanitariya-epidemiologik farovonligi to‘g‘risida»gi qonuni: sanitariya va epidemiologik farovonlik masalalarini tartibga soladi, jumladan mehnat sharoitlari va xodimlarning sog‘lig‘ini muhofaza qilishga qaratilgan talablarni o‘z ichiga oladi.

- O‘zbekiston Respublikasining «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida»gi qonuni: xodimlarni baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan ijtimoiy sug‘urta qilish tartibini belgilaydi.

- O‘zbekiston Respublikasining «Ish beruvchining fuqarolik mas’uliyatini majburiy sug‘urtalash to‘g‘risida»gi qonuni: xodimlarning hayoti va sog‘lig‘iga ziyon yetkazganlik uchun ish beruvchining fuqarolik mas’uliyatini sug‘urtalashga oid majburiy talablarni belgilaydi.

Yuqorida qayd etilgan qonunlar va me’yoriy hujjatlarga rioya qilish biz uchun majburiydir. Biz ta’minlaymiz:

- Xavfsiz mehnat sharoitlari: ish beruvchi belgilangan me’yor va standartlarga muvofiq xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish va ularni saqlash uchun majburdir.

- Xodimlarni o‘qitish va axborot berish: barcha xodimlar mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘quv kurslaridan o‘tishi va mumkin bo‘lgan risklar hamda ehtiyotkorlik choralari haqida xabardor bo‘lishi shart.

- Muntazam tekshirishlar va audit: mehnatni muhofaza qilish holatini baholash va ehtimoliy qoidabuzarliklarni aniqlash uchun muntazam ichki tekshiruvlar va mustaqil auditlar o‘tkazilishi zarur.

- Hujjatlashtirish va hisobotlik: mehnatni muhofaza qilish holati, o‘tkazilgan chora-tadbirlar va aniqlangan qoidabuzarliklar haqidagi barcha ma’lumot hujjatlashtirilishi va tekshirish uchun mavjud bo‘lishi shart.

- Sanitariya me’yorlariga rioya qilish: kompaniya xodimlarning sog‘lig‘ini muhofaza qilishga qaratilgan sanitariya-epidemiologik me’yorlar va qoidalarga rioya qilinishiga kafolat berishi shart.

- Sug‘urta: ish beruvchi xodimlarni ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy sug‘urtalashni ta’minlash uchun majburdir.

Ushbu qoidalarga rioya qilish nafaqat xavfsiz ish muhitini yaratishga xizmat qiladi, balki xodimlarning huquqlarini muhofaza qiladi, bu esa kompaniyamiz barqaror rivojlanishining asosidir.

2.2. Ichki qoidalar

«Navoiyazot» AJda mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi (MM va SX) masalalarini tartibga soluvchi zavod darajasidagi umumiy ichki qoidalar ishlab chiqilgan. Ushbu qoidalar xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlashning asosi bo'lib xizmat qiladi va quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi:

1. Mehnatni muhofaza qilishning asosiy tamoyillari va maqsadlari: xodimlar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan strategik yo'nalishlar va maqsadlarni belgilaydi.

2. Xodimlar va ish beruvchining majburiyatlari: mehnatni muhofaza qilish sohasida tomonlarning aniq roli va mas'uliyatini belgilaydi.

3. Risklarni aniqlash va baholash tartiblari: ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq risklarni identifikatsiya qilish, baholash usullari va yondashuvlarini tasvirlaydi.

4. Baxtsiz hodisalar va insidentlarning oldini olish choralari: avariyali holatlarning yuz berish ehtimolini minimallashtirishga qaratilgan tavsiyalar va harakatlarni o'z ichiga oladi.

5. Standartlar va me'yorlar: korxonada barcha darajalarda rioya qilinishi lozim bo'lgan talablarni belgilaydi.

Bundan tashqari, «Navoiyazot» AJda xodimlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida quyidagi sohalarga oid reglamentlar ishlab chiqilgan:

- Ta'lim: barcha xodimlar mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'quv kurslaridan o'tishi shart, jumladan xavfsiz ish usullari va favqulodda vaziyatlarda xulq-atvor qoidalari bilan tanishtirishga qaratilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar.

- Yo'l-yo'riqlar: kirish, dastlabki, takroriy, maqsadli va navbatdan tashqari yo'l-yo'riqlarni o'tkazish hamda ularni hujjatlashtirish tartibi belgilangan. Har bir xodim o'z ishining xususiyati va unga bog'liq ehtimoliy yo'l-yo'riqlar haqida to'liq ko'rsatmadan o'tgan bo'lishi kerak.

- Shaxsiy himoya vositalarini (ShHV) berish: yo'riqnoma turli toifadagi xodimlar uchun ular bajaradigan vazifalarga muvofiq zarur ShHV ro'yxatini, ularni taqdim etish, almashtirish va hisobga olish tartibini hamda xodimlarning ShHVdan foydalanish va ularni saqlash bo'yicha mas'uliyatini belgilaydi. Shuningdek, ShHV holati va belgilangan talablarga muvofiqligi bo'yicha muntazam tekshiruvlar o'tkazish nazarda tutilgan.

- Ish joylarini attestatsiyadan o'tkazish: ish joylarida mehnat sharoitlarini baholash tartibini, xodimlarning sog'lig'iga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, attestatsiya o'tkazish tartibi, aktlar tuzish va mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha tavsiyalarni, shuningdek, ish joylarini takroriy attestatsiya qilish va holatini monitoring qilish muddatlarini o'z ichiga oladi.

«Navoiyazot» AJ tomonidan ishlab chiqilgan ichki qoidalar, reglamentlar va tartiblar barcha xodimlar uchun xavfsiz va sog'lom ish muhitini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu qoidalarga rioya

qilish majburiy bo‘lib, ishlab chiqarish faoliyatiga bog‘liq risklarni kamaytirishga hamda korxonada umumiy xavfsizlik madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

2.3. Xalqaro standartlar va yondashuvlar

«Navoiyazot» AJ ISO 45001 xalqaro standartiga amal qiladi, ushbu standart mehnatni muhofaza qilish va xodimlar sog‘lig‘ini saqlash boshqaruv tizimlariga qaratilgan talablarni belgilaydi. Ushbu standart quyidagi maqsadlarga qaratilgan:

- Barcha xodimlar uchun xavfsiz va sog‘lom ish muhitini yaratish
- Ish joyida risklarni barqaror ravishda kamaytirish hamda baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklarning oldini olish
- Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarish jarayonlarini doimiy takomillashtirish

«Navoiyazot» AJ faol ravishda Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) faoliyati standartlariga amal qiladi, ushbu standartlar rivojlanayotgan bozorlarda xususiy sektor loyihalari doirasida barqaror rivojlanish va ijtimoiy mas’uliyatni ta’minlashga qaratilgan. Hozirgi kunda XMK sakkizta standart ishlab chiqqan bo‘lib, ulardan bizning Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi chora-tadbirlari rejasi uchun eng dolzarblari quyidagilar hisoblanadi:

- 1-faoliyat standarti: «Ijtimoiy va ekologik risklar hamda ta’sirlarni baholash va boshqarish». Ushbu standart tashkilotlardan o‘z faoliyati bilan bog‘liq ehtimoliy ekologik va ijtimoiy xavf-xatarlarni to‘liq baholashni hamda ularni samarali boshqarish uchun strategiyalar ishlab chiqishni talab qiladi.
- 2-faoliyat standarti: «Ishchi-xodim va mehnat sharoitlari». Xodimlar uchun xavfsiz va sog‘lom mehnat sharoitlarini ta’minlashga, jumladan ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan talablarni belgilaydi.
- 4-faoliyat standarti: «Aholining sog‘lig‘ini muhofaza qilish va xavfsizligini ta’minlash». Ushbu standart tashkilotlardan o‘z faoliyati bilan bog‘liq hollarda mahalliy aholining sog‘lig‘i va xavfsizligini ta’minlashni talab qiladi.

Ushbu standartlarning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Loyihani amalga oshirish hududida ijtimoiy va atrof-muhitga bo‘ladigan salbiy hamda ijobiy ta’sirlarni aniqlash.
- Loyihani amalga oshirish davrida, odatiy hamda favqulodda holatlarda, xodimlar va mahalliy aholining sog‘lig‘i va xavfsizligiga bo‘ladigan xavf-xatarlar hamda salbiy ta’sirlarni minimal darajada kamaytirish
- Xodimlar tomonidan qonunchilikka muvofiq xavfsizlik qoidalari va choralariga rioya qilinishi, shu jumladan aholining xavfsizligiga bo‘ladigan risklarni istisno qilish yoki minimallashtirish imkonini beruvchi shaxsiy himoya vositalari va usullaridan foydalanishni ta’minlash

- Ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish tizimlaridan foydalanish orqali korxonalarning ijtimoiy va ekologik mas'uliyatga oid faoliyati sifatini oshirish.

Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK)ning gigiyena va atrof-muhit xavfsizligi sohasidagi umumiy prinsiplari xodimlarning sog'lig'i va xavfsizligini muhofaza qilish uchun qo'llanilishi kerak bo'lgan yo'riqlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tamoyillar mehnatni muhofaza qilish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish asosi sifatida xizmat qiladi.

Ishlab chiqarishda atrof-muhitni muhofaza qilish, sog'liq va xavfsizlikning asosiy tamoyillari quyidagi jihatlarni hisobga oladi:

- Havoning sifati: ishlab chiqarish maydonchasida havo ifloslanishini monitoring va nazorat qilish.
- Xavfli materiallar: xavfli moddalar bilan ishlash qoidalari, shu jumladan ularni saqlash va yo'q qilish.
- Texnologik rejim me'yorlari: favqulodda vaziyatlarning oldini olish uchun texnologik me'yorlarga rioya qilish.
- Mehnat sharoitlari: barcha xodimlar uchun xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini ta'minlash

Shu tariqa, MFK standartlariga rioya qilish va ularning tavsiyalarini joriy etish «Navoiyazot» AJga nafaqat xalqaro talablarga to'liq muvofiq bo'lish, balki xavfsiz va barqaror mehnat muhitini shakllantirishga faol hissa qo'shish imkonini beradi.

3. Tashkillashtirish va javobgarlik

3.1. Vazifalarni taqsimlashning umumiy tamoyillari

«Navoiyazot» AJ mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi (MMQ va SX) boshqaruv tizimini barcha boshqaruv darajalari o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash asosida shakllantirmoqda. Kompaniyaning yuqori rahbariyati mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasida strategik maqsadlar va ustuvorliklarni belgilash, zarur resurslarni ajratish, asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tasdiqlash va ularning bajarilishini nazorat qilish uchun mas'uldir. Rahbariyat shaxsiy liderlik va xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishda faol ishtirokini namoyon etadi.

Bo'linma rahbarlari ishlab chiqarish jarayonlarining xavfsiz tashkil etilishini ta'minlaydi, MM va SX talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, xodimlar uchun yo'riqnomalar o'tkazish va o'qitishni tashkil etadi, shuningdek, shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlaydi hamda ulardan foydalanilishi ustidan nazorat qiladi. Shuningdek, aniqlangan qoidabuzarliklar va hodisalar to'g'risida rahbariyatni o'z vaqtida xabardor qiladi.

Ekologiya, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi boshqarmasi hamda ishlab chiqarish nazorati boshqarmasi mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi funksiyalarni amalga oshiradi, bo'linmalarga uslubiy va ekspert yordam ko'rsatadi, inspeksiyalar, auditlar va ish joylarini attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etadi, xodimlarni o'qitish va sertifikatlashtirishni amalga oshiradi, tekshirish natijalari hamda noxush hodisalarni tekshirish yakunlariga ko'ra tuzatuvchi va oldini oluvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va joriy etadi, shuningdek, milliy va xalqaro

standartlarga muvofiq mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarish tizimini doimiy takomillashtirib borishni ta'minlaydi.

Rollar va majburiyatlar

«Navoiyazot» AJ boshqaruv raisi (rahbar) tegishli bo'limlarda bayon etilgan qonunchilik va talablarni joriy etish hamda ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. U xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish va favqulodda holatlar yuzaga kelgan taqdirda ish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan resurslar bilan ta'minlashni o'z ichiga olgan moddiy-texnika ta'minoti uchun umumiy javobgarlikni zimmasiga oladi. Shuningdek, boshqaruv raisi korxonada sog'liqni saqlash va xavfsizlikni ta'minlash ishlariga umumiy rahbarlikni amalga oshirgan holda xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish uchun javob beradi. Uning vazifalariga sanoat xavfsizligi bo'yicha ishlab chiqarish nazoratiga rahbarlik qilish va tegishli chora-tadbirlarni moliyalashtirishni ta'minlash, shuningdek, ishlab chiqarish nazorati tizimi doirasida boshqaruv raisining o'rinbosarlari vazifalarini belgilash kiradi.

Ekologiya, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi boshqarmasi boshlig'i qonunchilik va ichki me'yoriy hujjatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. U kompleks tekshiruvlar va maqsadli nazorat tadbirlarida ishtirok etadi, xodimlarning murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha maslahatlar beradi. Shuningdek, uning vakolatlariga xavfsizlik texnikasi talablarini buzgan shaxslarga nisbatan intizomiy choralar qo'llash kiradi.

«Navoiyazot» AJning barcha xodimlari mazkur «Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi bo'yicha chora-tadbirlar rejasi»da (4-bo'limga qarang) nazarda tutilgan tartib-taomillar va harakatlarni o'z mehnat faoliyati davomida bajarishi, shuningdek, xavfsizlik texnikasi talablarining buzilishi va baxtsiz hodisalar to'g'risida sex boshlig'ini xabardor qilishi shart.

«Navoiyazot» AJda xodimlar bilan ta'minlash va resurslar xavfsiz hamda sog'lom mehnat muhitini yaratishga qaratilgan. Majburiyatlarning aniq taqsimlanishi va har bir xodimning shaxsiy javobgarligi korxonada mehnat xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish darajasini oshirishga xizmat qilishiga ishonamiz. Bunday yondashuv boshqaruvning har bir darajasida o'z roli va vazifalarini to'liq anglash va bajarishni ta'minlaydigan, shuningdek, barcha xodimlar xavfsiz va barqaror ishlab chiqarish muhitini ta'minlashga jalb etilgan shaffof hamda samarali o'zaro hamkorlik tizimini shakllantirish imkonini beradi.

- Yuqori rahbariyatning mas'uliyati — maqsadlarni belgilash va zarur resurslarni ajratish.
- Tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining rollari — talablarni nazorat qilish va bajarish.
- MM va SX funksiyasi — uslubiy qo'llab-quvvatlash, tekshirish, o'qitish.

3.2. Xodimlar bilan ta'minlash va resurslar

